

“O‘zbektelekom” Aksiyadorlik Kompaniyasiga 2023-yil davomida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushgan murojaatlar to‘g‘risida

MA’LUMOTNOMA

“O‘zbektelekom” AKga 2023-yil davomida jami 7 544 ta jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari kelib tushgan bo‘lib, 2022-yilda 8 779 tani tashkil etgan, ya’ni 14 % ga kamaygan.

Shulardan, Kompaniyaning boshqaruv apparati tomonidan 828 ta (94 % qanoatlantirilgan), “O‘zMobayl” 691 ta (92 %), Kontakt markazi 167 ta (84 %), Xorazm 405 ta (92 %), Farg‘ona 272 ta (96 %), Toshkent 1363 ta (89 %), Sirdaryo 65 ta (95 %), Surxondaryo 340 ta (91 %), Samarqand 846 ta (93 %), Namangan 376 ta (97 %), Navoiy 156 ta (94 %), Qashqadaryo 385 ta (97 %), Jizzax 170 ta (93 %), Buxoro 166 ta (97 %), Andijon 460 ta (99 %), Qoraqalpog‘iston Respublikasi 601 ta (90 %) va Toshkent shahar telefon tarmog‘i filiallariga 250 ta (96 %) murojaat kelib tushgan bo‘lib, barcha murojaatlarga o‘rnatilgan tartibda hamda belgilangan muddatlarda javob berilgan.

Murojaatlarni ko‘rib chiqishda 2022-yil davomida kelib tushgan barcha murojaatlarning qanoatlantirish darajasi 91 %ni tashkil etgan bo‘lib, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 93 % (+2 %)ga oshgan.

Shuningdek, Kompaniya rahbariyati tomonidan joylarda jismoniy va yuridik shaxs vakillari uchun sayyor qabullar tashkil etish bo‘yicha Kompaniyaning tegishli farmoyishi bilan tasdiqlangan sayyor qabullar jadvaliga asosan, 2023-yil davomida:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qorauzak tuman;
- Xorazm viloyati Xonqa va Yangibozor tumanlari;
- Navoiy viloyati Nurota tumani,
- Andijon viloyati Xonobod shahri,
- Farg‘ona viloyati Bog‘dod tumani,
- Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani,
- Toshkent viloyati Zangiota tumani,
- Surxondaryo viloyati Boysun tumani,
- Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumani,
- Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumani,
- Buxoto viloyati Qorako‘l tumani,
- Sirdaryo viloyati Guliston shahrida sayyor qabullar tashkil etilgan.